

ABU XOMID G'AZZOLIY ILMİY QARASHLARIDA JAMIYAT ISLOHOTI MUAMMOSI

**ПРОБЛЕМА РЕФОРМЫ ОБЩЕСТВА В НАУЧНЫХ ВЗГЛЯДАХ АБУ ХАМИДА
ГАЗАЛИ**

**THE PROBLEM OF SOCIETY REFORM IN THE SCIENTIFIC VIEWS OF ABU HAMID
GHAZALI**

Eryigitova L.A. - PhD

Central Asian Medical University tibbiyot universiteti

Eryigitova L.A. ABU XOMID G'AZZOLIY ILMİY QARASHLARIDA JAMIYAT ISLOHOTI MUAMMOSI.
Actacamu, 6(6), 84–86. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12805399>

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk ulamo va olim Abu Homid G'azzoliyning ilmiy – nazariy qarashlaridagi jamiyat islohati borasidagi qarashlari haqida fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** davr ning ijtimoiy talablari, islom tarixining hal qiluvchi pallasi, saljuqiylar saltanati qonunlari, kalom ilmiga munosabat, jamiyat islohati talablari, jaholat va razillik belgilari*

***Аннотация:** В данной статье изложены взгляды великого ученого Абу Хамида Газали на реформирование общества в его научно-теоретических взглядах.*

***Ключевые слова:** социальные требования периода, решающий период истории ислама, законы Сельджукского государства, отношение к науке, требования социальных реформ, признаки невежества и злобы*

***Abstract:** This article describes the views of the great scholar and scientist Abu Hamid Ghazali on the reform of society in his scientific-theoretical views.*

***Keywords:** the social requirements of the period, the decisive period of the history of Islam, the laws of the Seljuk kingdom, the attitude to the science of the word, the demands of social reform, signs of ignorance and wickedness*

Har bir millatning faxrlanadigan, davr vaqt chegarasini bilmaydigan dunyoga dohildor orif insonlari bo'lganidek, xalqimiz islom falsafasining yirik namoyondasi, mashhur alloma va ulamo Abu Homid G'azzoliy bilan ham boshqa buyuklari qatorida g'ururlanadi. Uning ilmiy merosini o'rganish va kelajak avlodlariga o'rgatishlikni ruhiy tarbiya borasidagi muhim vazifalaridan biri deb hisoblaydi. Ilk renessans davomi o'laroq tashkil topgan buyuk Saljuqiylar davlatining barpo etilishi va ravnaqida bu allomaning ham katta ma'naviy xizmatlari bor. Xususan, allomaning davlat boshqaruvi sohasidagi islohatlari o'z davri uchun nechog'lik ahamiyatli bo'lganligini olimning izlanishlarini o'rganish orqali bilishimiz mumkin. Imom G'azzoliyning o'z davridagi jamiyatni isloh qilish yo'lidagi xizmatlari alohida tahsinga loyiqdir. U oldinlari falsafani tanqid qilish va kalom ilmini yangilash borasidagi sa'y – harakatlari bilan jamiyatda kata uyg'onishga sababchi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik "Ihyou ulumid-din" orqali o'sha vaqtdagi ijtimoiy hayotini isloh qilish, ruhiy tarbiya va haqiqatlar bilan ziynatlanishga da'vat qilish bilan yana bir ulkan ma'naviy islohotni boshladi. Olim jamiyatni isloh qilish uchun uning zaif o'rinlarini va buzilgan joylarini, illat va hastalikalrini bilishi lozim edi. Buning uchun esa turli qatlamlarning holatini o'rganib chiqish kerak: "Iblis ularni qanday aldagan? Ular qanday orzu – havaslar bilan yashashyapti? Qaysi diniy tushunchalar o'zgarib ketgan? Qaysi haqiqatlar buzib ko'rsatilgan? Insonlar zohiriy narsalar va rasm – rusumlar bilan qanday mashg'ul bo'lib qolishyapti? Din haqiqatlari va maqsadlari haqida qanday bid'atlar to'qishgan? Allox taolo saqlagan kishilardan tashqari barcha insonlar nega oxirat ishlaridan chalg'ib qolishdi? Qiyomat haqida fikr yurituvchilar va Allox taoloning roziligini istab harakat qiluvchilar ham nega ozchilikni tashkil qilishadi?" [1].

Imom G‘azzoliy bu savollarda zikr etilgan kamchiliklarni “Thyou ulumid-din”ni yozishdan oldin ham bilgan edi. Shuning uchun u jamiyatga sog‘lom din mezoni bo‘yicha nazar soldi. Unga to‘g‘ri yo‘ldan toyishlar va bid‘at-u xurofotlar ochiq-oydin ko‘rindi. Keyin har bir qatlamga birma-bir yondashib, ularning xastaliklari va adashgan joylarini ko‘rsatib o‘tdi. Maqsad va g‘oyalar, vosita va sabablar orasidagi tafovutni ajratib berdi. Imlarni taqsimlab, diniy va dunyoviy ilmlar orasini, maqtalغان hamda qoralangan ilmlarni, farzi ayn va farzi kifoyalarni ajratib chiqdi. Yozish asnosida olim o‘sha davrga farz bo‘lgan, inson tark qilishi mumkin bo‘lmagan, unchalik zarur xisoblanmagan narsalarga tanbeh berib o‘tdi. Boylarga xos bo‘lgan illatlar, ularning orzu-xavaslari va g‘urulari haqida ogohlantirdi. Xalq ommasining xastaliklari, turli qatlamlarda tarqagan munkar-yomon ishlar, qoralangan odatlar, johiliyat ishlarining qaytishi, bid‘atlarning tarqalishini ham aytib o‘tdi. Shu tariqa bu kitob jamiyatni to‘g‘rilash va isloh qilishda eng mo‘tabar o‘ta foydali asarlardan biri bo‘lib qoldi.

Imom G‘azzoliy dinning zaiflashuvi va ma‘naviy inqirozdagi katta yuk ulamolar va din arboblari zimmasiga tushadi, deb e‘tiqod qilari edi. Chunki bular ummatning tuzi edilar. Tuz ayniydigan bo‘lsa, uni nima ham tuzata olishi mumkin? Olimlar qalbi xozir hasta ekanini, ularning qiyomat kunidan g‘aflatdaligi va buning sabablarini zikr qila turib, ulamolar aslida, qalb tabiblari bo‘lishiga qaramay, o‘zlarining illatlardan halos etmasligini aytib, shunday deydi: “Tabibning yo‘qligi-eng bedavo kasaldir, chunki tabib - ulamolardir” [2]. Bu asrda ularning o‘zlari qattiq kasalga chalinishgan, buning davosi xozircha ojiz qolishmoqda. Ularni kasallik o‘rab egallab olgan. Bemor tabibning kasalni davolashi juda qiyin. Shuning uchun kasallik bedavoga aylandi. Ilm yo‘q bo‘lib ketdi, qalb tabibi va uning kasalligi tamoman inkor qilindi. Insonlar dunyo muhabbatiga yuz tutishdi. Amallar zohirida ibodat ko‘rinsada, aslida odat va mashqlarga aylanib qoldi”.

Imom G‘azzoliy hokim va amirlarning buzilib ketishi sababini ulamolarning zaifligida va o‘z ishlarida sustkakshlikka yo‘l qo‘yganliklarida ko‘rardi. U ulamolarning farz bo‘lgan amri ma‘ruf, nahyi munkardan, zolim hokim oldida haq so‘zni aytilishdan to‘xtab qolishganini ham aytdi. Bunga din kishilari amirlarning oto‘riga ilinib, dunyoga muhabbat va mansab ilinjida tushib qolganlarini sabab qilib ko‘rsatadi hamda salaf ulamolarning shijoatlari, ularning umaroga haq so‘zni ayta olishlarini keltirib o‘tganidanb so‘ng shunday deydi: “Hozirgi paytda ta‘ma ulamolarning tillarini bog‘lab qo‘ydi, ularning so‘zlari ahvollarini yaxshilay olmadi. Agar to‘g‘ri so‘z bo‘lib, haqiqiy ilmni qasd qilishganda edi, zafar topgan bo‘lishardi. Xalq umaroning buzilgani, umaro esa ulamoning buzilgani sababli y‘ldan og‘di. Ulamoning buzilishiga esa, ularning mol-dunyo va mansab-martaba muhabbatiga mukkasidan ketganlari sabab bo‘ldi. Mol-dunyoning muhabbati qalbini egallab olgan kishi past tabaqadagi insonlarga ham chora-tadbir qo‘llashdan ojiz bo‘lib qoladi. Oddiy odamlarni so‘zini o‘tkaza olmagan inson qanday qilib hokim va amirlarga gapira oladi. Har qanday holatda ham yordam so‘raluvchi Zot Alloxdir”.

“Thyou ulumid-din” kitobida G‘azzoliy ulamolarni shijata, ixlosga, ilmiy tahlilga chorlaydi. Ularning g‘ayrat va shuurlarini uyg‘otadi. Chunki ulamolar jamiyat islohidagi asos hisoblanishadi. Ular isloh bo‘lsa, olam isloh bo‘ladi, ular buzilishsa, olam buziladi.

G‘azzoliy yashagan zamonda mamlakatning tizgini vazirlarning qo‘lida bo‘lar edi. Vazir isloh bo‘lsa, davlat isloh bo‘lar, vazir buzilsa, davlat ham buzilar edi. G‘azzoliy buni juda yaxshi bilardi. Chunki u buyuk saljuqiylar mamlakatining vaziri Nizomul-Mulk Tusiyga va uning o‘g‘illariga hamasr bo‘lgan edi. Shuning uchun podshohlardan k‘ra mamlakat vazirlariga ko‘proq e‘tibor qaratdilar. Chunki ular mamlakatning kaliti, ishlarining asosiy boshqaruvchisi edi. G‘azzoliy mamlakat vazirlariga maktub yozib, unda qonun-qoidalar buzilishiga e‘tibor qaratishni, hokimlar zulmi, odamlarning mollarini o‘zlashtirib olayotgani, mas‘ul shaxslarning g‘aflatda qolayotgani, amaldorlarning ta‘magir bo‘lib ketgani bayon qilingandi. Yana maktubda amaldorlarni Alloxning azobidan qo‘rqitish, o‘tgan vazirlar, zolim podshohlarning qismatini eslatish, ma‘muriyatlarni isloh qilishlar bayon etilgan edi. Amirlardan Mujiriddinga yozilgan maktubda quyidagilar aytilgan edi: “Haqqa yordam berish barchaga vojibdir. Zulm haddan oshib ketdi. Bu zolimliklarga toqat qila olmasdan, xijrat qildim. Keyin ba‘zi ishlar sabab, Tus ziyoratiga keldim. Unda zulm hali-hamon to‘xtamagan ekan” [3].

Shuningdek, Imom G‘azzoliy olimlar va ilm toliblarini fiqxiy masalalr, xiloflar, kalom va jadal (bahs-munozara) ilmlariga, bundan tashqari naxv, lug‘at, she‘r kabi bilimlarga berilib ketganlarini, so‘fiylarni esa mashoixlarning so‘zlari va ular haqidagi hikoyalar bilan kifoyalanib qolayotganlarini ham tanqid qiladi. U bu haqida mulohaza qilib,: “Yuqorida zikri kelgan ilmlar shariatga taaluqli bo‘lganligi uchun, u bilan shug‘ullanuvchi kishilar g‘urulanib qolishgan. Ammo tib, hisob, xunar va shariat ilmlaridan deb tanilmagan kishilar esa, bu bilan Alloxx taoloning mag‘firatiga yetamiz deb o‘ylamaganlari uchun ham bu ilmlar bilan g‘ururlanish shariat ilmlari bilan g‘ururlanishdan ko‘ra kamroq bo‘lgan”, deydi.

“Ihyo ulumid-din”da jamiyatni isloh qilishning boshqa muammolari haqida ham dadil, jo‘yali va foydali fikr-mulohazalar keltirilganki, bularning hammasi ommaning barcha tabaqalarini ushbu kitobga bo‘lgan qiziqish va e‘tiborlarini kuchaytiradi, xolos.

Imom G‘azzoliyning barcha ilmlarga ixloslari, xossatan, haqiqat va oxirat talabidagi himmatlari yuksak darajada edi. U zot qoldirib ketgan ilmiy meros Islom tafakkuri boyligi hisoblanib, barcha asrlarda insonlar bu hazinaning fazlini tan olib kelishgan.

Imom G‘azzoliy jamiyatni isloh qilishda uning a‘zolarini jaholatdan qutqarish, bilimli qilish, Allohni tanitish o‘ta muhim ish ekanini alohida ta‘kidlaydi. Johil kimsalarning asl qiyofalarini ochib berar ekan, ularni tarbiyalamay turib, jamiyatni o‘zgartirishda ko‘zlangan maqsadga erishishning dushvorligini ham ko‘rsatib beradi. Olim jaholat haqida shunday yozadi:

“Johil va adashgan insonlar yomonlik neligini biladilar, lekin yaxshi ishlarga odatlanmaganlari sababli, qilayotgan qabix amallari o‘zlariga chiroyli bo‘lib ko‘rinadi. Dunyo istaklariga qul bo‘lish bilan ular to‘g‘rilikdan yuz o‘g‘irgan bo‘lsalarda amallaridagi qusurlardan xabardorlar. Bu toifaning tarbiyasiog‘irroq bo‘lgani uchun ularga bir necha vazifalar yuklanadi”. [4] Avvalo, ular buzuqlikka odatlanish natijasida ichlarida mahkam o‘rnashgan juda ko‘p illatlarni nafslaridan sug‘urib olishlari shart. Keyin yaxshilikka undaydigan sifatni qalblariga ekmoqlari kerak. Xullas, yeng shimarib, jiddu jahd etilsa, bu toifa kishilarining tarbiyasi riyozat uchun keng maydondir.

Johil, adashgan va fosiq kimsalar yomon ahloqni yaxshi deb e‘tiqod qiladilar. Ularning nazdida bu xulq haq va eng go‘zaldir. Undagi bu qarash borgan sari takkomillashadi. Shuning uchun bu toifadagi kishining muolajasi mushkul, sog‘ayishiga deyarli umid yo‘q. Kamdan-kam holda u dardiga davo topishi mumkin. Bu jihatlarning barchasi zalolatga ketish imkoniyatini oshiradi.

Johil, adashgan, fosiq va yovuz kimsalar nafaqat buzuq qarashda takomillashadilar, balki ular yomonliklarini ko‘paytirishni fazilat deb biladilar, bu bilan faxrlanadilar va “bu ishlar qadrimni oshiradi”, deb o‘ylaydilar [5]. Bu toifadagilarning ahvoli og‘ir. Ular haqida donishmandlar: “Keksani tarbiyalamoq-mashaqqat, bo‘rini tarbiyalamoq-uni azoblamoqdir”, deganlar.

A.G‘azzoliyning davlat boshqaruvi borasidagi islohatlari hozirgi qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Uning asarlaridagi fikrlari go‘yoki “ilohiyot va falsafani yarashrtirgan” [6] hamda bir biriga yaqinlashtirgan. Yurtimizda istiqloq tufayli G‘azzoliyning falsafiy, ma‘naviy merosini o‘rganishga keng yo‘l ochildi. Uning taqiqotlari nafaqat shariat va tariqat, balki jamiyat boshqaruvidagi islohatlar rivojiga ham hissa qo‘shdi. Anashuning uchun ham uning o‘z zamonasidan boshlab “Hujjatul ul – islom “ deya ulug‘lanishi bejiz emasligiga yana bir karra amin bo‘lamiz.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.H.G‘azzoliy. “Ihyo ulumiddin- din”. Toshkent;-Hilol nashr. -2018. 297 – b.
2. A.Badaviy. “ G‘azzoliyning ma‘naviy izlanishlari” –Toshkent; “Azon kitoblari” nashriyoti, 2021, 303 – bet.
3. A.M.Tursun. “Dunyoni tebratgan 7 buyuk”. – Toshkent; “Azon kitob” nashriyoti. 2021.
4. Q.Nazarov “Jahon falsafasi qomusi”. Toshkent; “Ma‘naviyat” nashriyoti, 2023, 674 – b.
5. Q.Nazarov “O‘zbek falsafasi”. -Toshkent; -O‘zbek faylasuflar jamiyati nashri, 2013.
6. Q.Nazarov “Jahon falsafasi qomusi”. -Toshkent; “Ma‘naviyat” nashriyoti, 2023, 676 – b.